
Yurtimizda tadbirkorlik sub'yektlari uchun 2023 yil 1 yanvardan boshlab aylanmadan olinadigan soliqni qat'iy belgilangan summada to'lash tartibi joriy etildi.

Bunda soliq to'lovchilar jami daromadi 500 mln. so'mdan oshmaganda yiliga 20 mln. so'mlik jami daromad 500 mln. so'mdan oshganda esa yiliga 30 mln. so'mlik qat'iy belgilangan summada soliq to'lashni ixtiyoriy tarzda tanlashlari mumkin. Ayni kunlarda Toshloq tuman davlat soliq inspeksiyasida mas'ul xodimlar tomonidan tadbirkorlarga bu borada tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek ularga, belgilangan summada soliq to'lashning afzallik va foydali tomonlari ko'rsatilib, qanday qilib soliq to'lashning bunday tartibiga o'tish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berilmoqda.

Toshloq tuman davlat soliq inspeksiyasi.

2023-01-11 17:57:00